ONA TILI TA'LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM VOSITALARINING AHAMIYATI

O.B.Qurbonova
Nizomiy nomidagi TDPU
"Umumiy tilshunoslik" kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'lim mazmunining lingvodidaktik jihatdan nazariy asoslanishi, bu fanni turli o'quv predmetlarini o'zaro integratsiyalab o'qitish, talabalarning og'zaki va yozma nutqni o'stirish, o'z fikrini mustaqil ifoda qilish, nutqiy ko'nikmalarni egallash bo'yicha tilshunos va metodist olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim mazmuni, o'quv dasturi, darslik, nutq ko'rinishlari, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, mashq, o'quv topshirig'i, matn ustida ishlash.

Abstract: This article analyzes the theoretical basis of the educational content of the native language linguodidactically, the scientific views of linguists and Methodist scientists on the mutual integration of various educational subjects, the cultivation of oral and written speech by students, independent expression of their opinion, acquisition of speech skills.

Keywords: educational content, curriculum, textbook, speech manifestations, oral and written literacy, speech skills, speech competence, exercise, study assignment, work on the text.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni subyektlarining zamonaviy yondashuvlarini, mustaqil mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish va ularning kognitiv- pragmatik kompetensiyalarini

takomillashtirish, talabalarni ona tili ta’limi mazmuni bo‘yicha o‘quv-metodik, nutqiy-pedagogik faoliyatga yo‘naltirish, ta’limiy vositalardan unumli foydalanishni o‘rgatish, ularning nazariy, diagnostik, pragmatik bilimlarini takomillashtirish orqali ijodkorlik, kreativ mantiqiy fikrlash malakalarining, informativ yondashuvlarni o‘stirish ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun ta’lim mazmunini interaktiv, innovatsion metodlarni qo‘llashning ilmiy metodologik asoslarini takomillashtirish ahamiyatli. O‘quv jarayonida ta’lim subyektlarining lingvistik va nutqiy, og‘zaki va yozma nutq ifodasining, grammatik bilimlarining o‘zbek tilida yuqori darajada rivojlantirishga e‘tibor qaratish lozim. Shu xususda metodist olimlar B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida bo‘lg‘usi mutaxassislarni maktab ta’limiga tayyorlashda grammatik mavzularga bog‘liq holda o‘quvchilar nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish metodikasiga alohida e’tibor qarstilgan. Mazkur maqola mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim bosqichlarida o‘quvchi va talabalarning kognitiv- pragmatik, nutqiy- kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadga muvofiq.

Shunisi ahamiyatliki, ona tili ta’lim mazmuni rivojlantirish ta’lim bosqichlarida uzluksiz jarayonlardan biri hisoblanadi. Lekin bu jarayonga har bir shu soha mutaxassisi jiddiy yondashib, tizimlilikka tayanib uni izchik tashkil qilishi lozim. Mazkur uzluksiz jarayon rivojida ta’limiy vositalardan foydalanishning o‘rni ahamiyatli. A.N.Shamov ta’lim vositalaridan foydalanishda quyidagi jihatlarga e’tibor berishni ta’kidlaydi: 1) fan dasturi bilan darslik mazmuni o‘rtasidagi aloqa; 2) o‘qitish mazmunining predmetli mantiqiy tarkibga mutanosibligi; 3) o‘qitish maqsadlariga mos kelishi; 4) asosiy tasvirning til hodisalarini tushuntirishidagi betakrorligi; 5) maksimal yuqori metodik samaraga erishishga yordam berish. Fan dasturi va darslik mazmunining mosligi, o‘qitish farayonining mantiqqq asoslanganligi, darsni metodik jihatdan samarali tashkil qilish o‘quv mashg‘ulotida qo‘llaniladigan ta’limiy vositalarga bog‘liq.

“Verbal tafakkur, noverbal tafakkurdan farqli ravishda, so‘zlar yordamida fikrlash amalga oshgani kabi, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisi ongida ushbu mavzu (hodisalar, jarayon va boshqalar)ning tasvirlari va ta’riflari orqali subekt va ongni bog‘laydi”. Boshqacha aytganda, tafakkur, fikrlash mahsuli, asosan, o‘zini tevarak-atrofdagi atrofdagi voqelik bilan fikr obrazlari orqali muloqot qiladi. Mazkur maqola maqsadi kasbiy nutq faoliyati og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish haqidagi qator konseptlarning ma’noviy ta’rifidan kelib chiqib, shu bo‘yicha ularda bilim va motivni o‘stirish va shu vositalar asosida mashg‘ulotlardan ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishga olib keladigan vazifalarni rejalashtirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va undan unumli foydalanish hamdatizimli tarzda o‘qitish mazmuni va kasbiy nutq faoliyatini ta’lim jarayoni subyektlarining kommunikativ salohiyatini mukammal rivojlantirishga yo‘naltiriladi. “Nutqning sharofati bilan tafakkur mahsulotlarining izchilligi, mantiqiyligi, sistemaliligi yuzaga keldi, kelajak avlod uchun meros tariqasida qoldirish imkoniyati barpo bo‘ldi. Tafakkur mahsulotlarining og‘zaki va yozma nutqlarda ifodalanishi (mustahkamlanishi) yosh avlodga muvaffaqiyatli ta’lim berish, ularni har tomonlama rivojlantirish imkonini yaratadi”. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv faoliyatini takomillashtirib borish, ularning nutqi, tafakkuri, fikrlashi, kreativligi boyib boradi.

Ma’lumki, ona tili ta’lim mazmuni sifat va samaradorligini oshirish professor–o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Oliy ta’lim muassasasida o‘tiladigan mavzu materialini tanlash, lisoniy birliklarni nutqida mustaqil qo‘llashni o‘rgatish, og ‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga oid matnli topshiriqlar ishlab chiqib, o‘quv jarayoniga uni tatbiq qilish yoshlarning intellektual salohiyatini, erkin, ilmiy va ijodiy fikrlashini o‘stiradi. Ona tili ta’lim mazmuni va uni yangilash masalalari Sh.Yusupova, X.Qurbonova, R.Safarovalar tomonidan tadqiq qilingan. Talabalrning turli informatsiyalarni tinglab, o‘qib, eshitib tushunadigan, o‘z fikrini ma’noli ifodalab, aniq, sermazmun so‘zlab yetkazadigan va diqqat bilan o‘qish qobiliyatlariga ega bo‘lib hamda ijodiy fikrlab, ilmiy qarashlarni tahliliy o‘rganda,yozma ifodalashda esa orfografik qoidalarga amal qilishi, turli ma’lumot va axborotlarni o‘qib undan mantiqiy xulosani chiqarishi dolzarbdir. Shu bilan bir qatorda, ona tili ta’lim mazmuni zamonaviy xalqaro andozalar ga asoslangan turli shakl va ko ‘rinishga ega bo‘lgan o‘quv metodik ta’minotni

ko‘proq yaratish va uni ta’lim jarayonida qo‘llab, samaradorligiga e’ ibor qaratish zarur deb hisoblaymiz.

Shu jihatlarni inobatga olib tadqiqotchi P.Starkov tomonidan quyidagicha fikrini keltirish ahamiyatga molik. “O‘qituvchi va o‘quvchilar ta’limiy faoliyatning obyektini, shuningdek, uning shakllari hamda mazmunini belgilaydi. Buni quyidagicha ta’riflash mumkin:og‘zaki va yozma kommunikatsiya jarayonida qo‘llanilayotgan vositani hamda uning harakatini o‘zlashtirishdan iborat”. Ona tili ta’limi mazmuniga xalqaro va zamonaviy yondashuvlarni singdirish va amaliyotda qo‘llash ularning nutqiy va lingvistik ko ‘nikmalarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Talabalarning ona tili mazmuni bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish akmeologik, aksiologik madaniyatini, mantiqiy fikrlash va turli zamonaviy yondashuvlarning o‘stirishga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonova X. Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari: Ped. fan. nom. disser. avtoref. – Toshkent, 2005-y.

2. Safarova R. Ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent: Fan, 1995.-224b

3. Старков А.П. Обучение английскому языку в средней школе. — Москва: Просвещение, 1978. – С. 224.

4. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: 2006.-192b

5. Yusupova Sh. Ona tili o‘qitish mazmuni. – Toshkent: Yangi asr avlodi.

6. Шамов, А. Н. Методика преподавания иностранных языков: теоретический курс, учебное пособие/А. Н. Шамов. – Нижний Новгород: НГЛУ имени Н. А. Добролюбова , 2012.- 288 ст, 177-ст.

7. Millrood R. Teaching English Communicatively. Speaking. -Manchester: CELSE, 1998.

8. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. –T.: O‘qituvchi Fan. 1990. -156